



INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR FANINING ASOSIY PREDMETLARI

Djalilova Gulbahor Mamirovna

Andijon Davlat tibbiyot instituti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Anotatsiya: *Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi, Ta'lim texnologiyasi va pedagogik texnologiya haqida tushuncha berish.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, Innovatsion texnologiya, Kompetentlik, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Kadrlar tayyorlashning Milliy modeli, pedagogik texnologiya shaxs, inson, individ, shaxs sifatleri*

Abstract: *To give an understanding of the interrelationship of the science with other subjects in the curriculum and its methodologically coherent sequence, Educational technology and pedagogical technology.*

Key words: *Innovation, Innovative technology, Competence, National program of personnel training, National model of personnel training, pedagogical technology, person, person, individual, personality qualities.*

“Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Ta'lim sohasida davlat siyosati va strategiyasining asosiy yo'nalishlarini;
- Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari tushunchasining ilmiy asoslarini, uning kategoriya va tamoyillarini; o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo'yiladigan zamonaviy talablarni;
- O'quvchi shaxsi, ta'lim jarayonida shaxs sifatlarining namoyon bo'lishini; Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarilarning tasnifi va asosiy jihatlarini;
- Ta'lim jarayonini texnologizatsiyalash haqida tasavvurga ega bo'lishi; zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni bilishi kerak;
- shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini faol shakllanishi, tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarilarning tamoyillari bilan bog'liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;
- Ta'limga texnologik yondashuv asosida mashg'ulotlarning o'quv maqsadini qo'ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish;
- amaliy mashg'ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;
- Ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi, ta'lim jarayonining “jonli”, ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta'limning zamonaviy integrativ metodlarini egallash;
- Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;
- Ta'lim standartlarining yangi talablari va o'zining ehtiyojlari bilan bog'liqlikda o'qitish va ta'lim olganlikni tashxis etishining turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo'llarini mustaqil yaratish va nazorat qilish ko'nikmalarini egallashi zarur;



- Tarixiy adabiyotlar bilan ishlay olish;
- Zarur metodik hujjatlarni tuza olish;
- Ilg'or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanish bilan o'z-o'ziga ta'lim berish bilan shug'ullanish;
- Yengil pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, ishga ijodiy yondashish;
- Muloqotda ochiq va hamdard bo'lish;
- Ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish;
- Individual, shaxsiy va yoshga oid o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda auditoriya bilan psixologik asosli muloqot va o'zaro harakatni tashkil etish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi. "Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari" fani ijtimoiy fanlar ayniqsa pedagogika fani bilan uzviy bo'g'liq. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (falsafa (etika, estetika, mantiq)), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogik mahorat) fanlari bilan o'zaro aloqada olib boriladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni. Ta'lim jarayonini texnologiyalash – pedagogik jarayon samaradorligining muhim sharti. Ana shuning uchun ham bo'lajak pedagoglar tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarining ilmiy asoslari, ta'lim va tarbiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalarini egallashlari zarur. O'quvchilar tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtirishida mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarilari fanini o'qitishda quyidagi vositalardan foydalaniladi

"Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari" fanini o'rganish davomida mashg'ulotlarda ta'limning axborot texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, interfaol metodlar qo'llaniladi. Bundan tashqari, "Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari" faniga tegishli darsliklar, o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar, ta'limning ko'rgazmali va texnik vositalaridan foydalaniladi.

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning asosiy yo'nalishlari:

- ta'lim tizimini, mazmunini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi. O'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va bu islohatlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi innovatsion texnologiyani amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

2. Innovatsion texnologiya haqida tushuncha



Ta'limni rivojlantirishning yangi boskichida Innovatsion texnologiyaning ahamiyati. Innovatsion texnologiya (IT) - shunday bilimlar sohasi, ular yordamida davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Chunki mamalakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy -siyosiy mavqei kundan-kun ortib bormoqda.

Bugungi kunda keng qo'llanilayotgan «**Innovatsion texnologiya**» atamasi inglizcha «**Innovation**» so'zidan olingan bo'lib, «Yangilik kiritish» degan ma'noni bildiradi.

Innovatsiya –ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangisha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan-da muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni tasniflashda quyidagi xususiyatlarga e'tibor qaratish mumkin;

-faoliyat yo'nalishiga qarab, nazariy va amaliy(pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi, o'qitish tizimidagi);

-kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli,tizimli,tezkor);

-kelib chiqish manbaiga ko'ra (ta'lim muassasasi jamoasi uchun ichki yoki tashqaridan olingan);

-innovatsiyalar, odatda, bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va,umuman, yangi masalalarni hal qiladi,pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishiga olib keladi. Bu o'rinda,muammolar va maqsadlar kesishgan holatda.

Yangiliklarni joriy qilish tushunchasi, nazarimizda, yangilik hamda ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir.

Yangilik –bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oya, bu g'oya obyektiv ravashda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo'yicha – yangilikochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan paytda aniqlaymiz.

Yangilikni joriy qilish predmet mazmuniga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi;

1. Texnik –texnologik,tizimli.

2. Mahsuliy yoki natijaviy.

3. Ijtimoiy.

O'z navbatida, bo'larga quyidagilar kiradi:

a) iqtisodiy;

b) tashkiliy-boshqaruv;

d) xususiy-ijtimoiy;

e) huquqiy;



Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi."Dars muqaddas" konsepsiyasi ta'lim tizimidagi asosiy innovatsiyalardan biri bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchi fajliyatini hamkorlik asosida tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi va unga berilgan ta'riflar. "Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan -texnos- san'at, hunar va logos- fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon -bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo) ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina) ning faoliyatidir.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Innovatsion texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi.

O'qitish texnologiyasi- birinchidan, innovatsion texnologiyaning jarayonli- harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operatsiya)larning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni;

Ikkinchidan, Innovatsion texnologiyaning jarayonli- bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihalashtirish bajarishning bayonidir (texnologik xarita).

Ta'lim texnologiyasi- Innovatsion texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlarda «Innovatsion texnologiya» tushunchasini ta'riflashda turli xil tasniflarni uchratishimiz mumkin.

O'zbekistonlik olim *N.Sayidaxmedov* fikricha: «Innovatsion texnologiya- bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir»

Yirik pedagog olimlarimizdan biri *M.Ochilov* Innovatsion texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi:



«Innovatsion texnologiya» tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta`lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o`zaro ta`sirini inobatga olib, ta`lim maqsadlarini oydinlashtirib, o`qitish va bilim o`zlashtirish jarayonlarida qo`llaniladigan usul va metodlar majmuidir»¹¹. U Innovatsion texnologiyaga ta`lim usuli, ma`lum ma`noda ta`lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Innovatsion texnologiya ta`lim-tarbiyaning ob`ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o`quv jarayonlari, ta`lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», deb ta`rif beradi.

Innovatsion texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o`qitishning har bir bosqichida ta`limning mazmunini belgilash, ta`lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma`naviy fazilatlarni o`zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta`limning natijasi va o`zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob`ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Ta`limda innovatsion texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo`llab-quvvatlandi. Hozirda ko`pgina mamalakatlarda muvoffaqiyatli qo`llanilib kelinmoqda.

Ko`pgina mamlakatlar innovatsion texnologiyadan foydalanib, ta`lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o`quvchilar o`zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. I.A.Karimov. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. T.: 1992.
2. I.A.Karimov. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. T.: 1992.
3. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotning poydevori. - T.: «Sharq», 1997.
4. N.N.Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
5. Asqarov A. O`zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- “O`zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8.
6. Gaffarov YA, Gafforova M. O`zbekiston xalqlari tarixini o`qitish usullari. T., 1996.
7. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
8. Yo`ldoshev J.G'. J.G'.Yo`ldoshev. Ta`lim yangilanish yo`lida.-T.: O`qituvchi. 2000.



9. Lerner I.YA. O'qitish metodlarining didaktik asoslari.M.,1991
10. Maxmutov M. Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish.T.,1991